

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rmi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

Maryambibi ABDULLAYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

PEDAGOGIK VA TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada bolalarda turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini ko'ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif pedagogning bolalar bilan muomaladagi ijodiy kayfiyati o'qituvchining ijodiy individualligining o'ziga xosligi aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Professional, tarbiyaviy ishlar, standartlar asosida, ijodiy individual, demokratik, reproduktiv, tarqatma material.

В статье дается представление о формировании способности видеть и понимать развитие речи у детей разных возрастных этапов. Автор также упомянул о творческом настрое учителя в обращении с детьми, об особенностях творческой индивидуальности учителя.

Ключевые слова. Профессиональная, воспитательная работа, нормативная, творческая индивидуальная, демократическая, репродуктивная, распространение материала.

The article gives an idea of the formation of the ability to see and understand the development of speech in children of different age stages. The author also mentioned the creative attitude of the teacher in dealing with children, the peculiarities of the creative personality of the teacher.

Key words. Professional, educational work, normative, creative individual, democratic, reproductive, distribution of material.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, yurt ravnaqi, el farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qiladigan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik huquqiy davlatni barpo etishga qaratilgan. Bu o'rinda mamlakatimizda mavjud barcha institutlar, shu jumladan, oila institutining ham roli kattadir. Oilani mustahkamlash, oila manfaatlarini huquqiy muhofaza qilish, oilada barkamol avlodni tarbiyalash, oila va jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari hukumatimiz olib borayotgan ijtimoiy siyosatining ustuvor masalalaridan hisoblanadi. Ushbu masalalarni amalga oshirishda Oliy Majlis tomonidan ijtimoiy soha bo'yicha qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlar va farmoyishlari, hukumat qarorlari va Davlat dasturlari muhim va ijobiy samara bermoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar yetkazib berish borasida o'tkazilgan tahlil natijalari avvalo, ta'lim sohasi uchun kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, sohada ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash zarurligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishdan iborat.

Tarbiya tizimiga to'g'ri va ijodiy yondashuv, tarbiyaning doimiyligi, tarbiya uchun jamiyat a'zolarining birdek mas'ulligi, tarbiyaning shaxsiy ibratga asoslanishi, oilaviy tarbiyaning ustuvorligidir.

Bo'lg'usi tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashdan asosiy maqsad – har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash, ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarning aqliy, ma'naviy, emotsional, mehnat va jismoniy rivojlanishiga ko'maklashish, umuminsoniy qadriyatlarga oshno bo'lishi uchun zamin hozirlash, o'z-o'zini rivojlantirish, ichki imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishi, muvaffaqiyatlarga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, ijtimoiy pedagogika, falsafa, pedagogika tarixi, anatomiya, fiziologiya kabi fanlar bilan aloqadorlikda o'qitiladi.

Bolalarda turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini ko'ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish; bola nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'lini to'g'ri tanlash va bolaning nafaqat yoshini, balki uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zaro birgalikda harakat qilish hamda olingan natijani tahlil qilish; bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirishning aniq metodlari va usullari haqidagi bilimlar o'zlashtirilishini hamda ularning didaktik nutq muloqotlari paytida qo'llay olinishini ta'minlash; metodik adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilgan holda maktabgacha yoshda bo'lgan bola nutqiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usullari va metodlarini yaratishga intilishni rag'batlantirish. Bolalar nutqini o'stirish metodikasi va ifodali o'qish, nutq o'stirishning psixolingvistik va ta'limiy asoslari kabi masalalar yuzasidan bilim berish.

Tarbiyaviy tadbirga yaxlit yondashuv omillari: shaxsiy munosabat, tarbiyaviy jara-yonning ta'lim jarayoni bilan bog'liqligi, maqsadning aniqligi va ta'sirchanligi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari, tarbiyalanuvchilarning faolligi va ijodiy mustaqilligidir. Shuningdek, yoshlarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, pedagoglar, psixologlar va huquqshunoslar hamkorligida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari hamda o'quvchi va talabalarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan sodda, ravon tilda bayon qilingan huquqiy axborotlarni o'z ichiga olgan buklet, qonunlarga sharx, ma'lumotnoma va tarqatma materiallar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bu boradagi hamkorlikni metodik ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlodni tarbiyalash va shakllantirishda jamiyatdagi barcha institutlarning yoshlar ta'limi va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi mutassadilarining pedagogik, psixologik, tibbiy bilimga ega bo'lishlari davr talabidir.

Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalari samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim uslub va shakllarga ega bo'lishizurur.

O'tkaziladigan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning

yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamlil bo'lishi kerak.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Pedagogik faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish asosiy o'rinda turadi. Inson o'zini yomon his qilganda, unda o'z-o'zini nazorat qilish zaiflashib qoladi, uning xulq-atvori vazmin bo'lmay qoladi, har xil beixtiyor va o'ylanmagan xatti-harakatlar, janjallar, axloqiy me'yorlarning buzilishi sodir bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga ta'sir qilish hissiy jarayonlarning ijobiy holatiga, kishining salomatligi yaxshi bo'lishiga yordam beradi, uning irodasi va fe'l-atvoriga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'z-o'ziga ta'sir qilish o'zining har qanday variantida ham ijobiy hissiy holatni saqlab qolishning faqat yordamchi vositasi hisoblanadi. Ko'ngil xotirjamligining eng muhim sharti – aqliy va jismoniy mehnat, bilish va yaratuvchilik jarayonlaridan shod bo'lish, o'zining o'qituvchilik faoliyati natijalaridan zo'r qoniqish hosil qilishdir.

O'qituvchining ishida muomalaning turli bosqichlarida uning emotsional kayfiyati: faoliyatga hozirlik ko'rish jarayonida, uni amalga oshirish davrida, muomala amalga oshgandan keyingi his qilinadigan sezgilarda va kechinmalarda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa biz kasbiy-pedagogik muomalani amalga oshirish uchun juda muhim bo'lgan pedagogning psixik holatlari va ularni faoliyat hamda muomala jarayonida boshqarish muammosiga yaqinlashib kelyapti.

Kasbiy-pedagogik muomala jarayonida ijodiy kayfiyatni boshqarish muammolari nihoyatda muhimdir. Darsga bo'lgan psixologik rag'bat, sinf bilan bo'ladigan muomala rag'bat, o'zaro fikr almashish ilhomi degan ilhomning vujudga kelishi va amalga oshirilishi murakkab jarayondir. Dastlab pedagogning mustaqil psixologik yo'l tutishi asosida, uning pedagogik ishga munosabati uni jalb qiladigan bo'lajak faoliyati materialiga munosabati natijasida, bolalar bilan bo'ladigan muomaladan qoniqishni oldindan his qilish asosida vujudga keladigan ilhom sinf bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilish paytida xuddi ana shu bevosita aloqaga muhtoj bo'ladi, bevosita muomala asosida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Pedagogning o'zaro fikr almashishidagi kayfiyati uning umumiy fikr almashish madaniyati darajasiga ham va eng asosiysi, uning shaxsining kasbiy-pedagogik yo'nalishi darajasiga, uning bolalar bilan ishlash istagiga bog'liq. Shunday qilib, pedagogning kasbiy-axloqiy yo'l tutishi bilan bog'liq bo'ladi.

Pedagogning bolalar bilan muomaladagi ijodiy kayfiyati o'qituvchining ijodiy individualligining o'ziga xosligi, o'quvchilar jamoasining xususiyatlari, faoliyat sharoitlari va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. Pedagogning muomaladagi kayfiyati pedagogik ta'sir ko'rsatishning obyektlari – subyektlari bo'lgan o'quvchilarning ijodiy kayfiyati bilan ko'p jihatdan bog'liq. Buning ustiga o'qituvchining mustaqil psixologik yo'l tutishi asosida vujudga keladigan ijodiy kayfiyat uning sinf bilan o'zaro hamkorligi

paytida aynan o'quvchilar bilan uzviy muomalaga asoslanadi, binobarin, o'quvchilar jamoasining ijodiy kayfiyatiga muqarrar ravishda tayanadi.

Bolalar bilan bevosita muomalada ijodga aniq rag'bat bildirish murakkab bo'lib, har bir o'qituvchida o'ziga xos tarzda kechadi. Pedagoglarning ko'pchiligi bo'lajak darsga psixologik rag'batni muntazam ravishda amalga oshirib turadilar, bolalar bilan uchrashuvga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko'radilar. Pedagog ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish uchun amalga oshiradigan psixologik ishning yo'nalishlari xilma-xil bo'lib, uning aqliy tomonlarini ham hissiy tomonlarini ham qamrab oladi. Bu – darsni fikran boshdan kechirishga intilish, tadbir va bo'lajak muomaladan iborat bo'lib, uning mumkin bo'lgan shakllarini oldindan aytib berish ana shu ish orqali zarur ijodiy kayfiyatni vujudga keltirishdir, u bo'lajak faoliyatni his qilib ko'rishga, unga hissiy jihatdan berilishiga yordamlashadi. Bunday ishni amalga oshirish muqarrar ravishda faoliyat (dars, tadbir) materialiga o'zining hissiy munosabatini yangilash bilan bog'liq. Bu yangilash ba'zan tanish bo'ladi, chunki materialni bunday yangilash asosida idrok qilishsiz faoliyatning o'ziga mahliyo bo'lish qiyin.

Pedagogning ijodiy ish jarayoni uchun dars materialini o'zining shaxsiy tajribasi bilan qiyoslashga intilish ibratlidir, bu tajriba materialni hissiy yangilashga, undagi yangi bog'lanishlar hamda vositalarni ko'rishga yordam beradi. Bunday intilish ayniqsa, gumanitar mutaxassisliklar vakillariga xosdir. Chunki tahlil materiali, aytaylik, adabiy asar materiali pedagog tomonidan shaxsan chuqur vositalangan, tarixchining hayajonli hikoyasi kabi boshdan kechirilgan bo'lishi, unda Vatanimiz o'tmishining bolalar qalbiga yaqin manzaralari sezilarli ravishda jonlanishi lozim. Ko'pgina o'qituvchilarga shu narsa xoski, ular shaxsdan tashqari tajribaga, tabiiyki, shaxsan vositalangan tajribaga intiladilar.

Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshqarishning alohida bir muhim muammosi bunday kayfiyatni bevosita faoliyat oldidan chaqirish va safarbar qilish noijodiy kayfiyatni yengish hisoblanadi.

K.S. Stanislavskiy tizimi asosida pedagogning ijodiy jarayonini o'rganish shunga ishonch hosil qildiradiki, ijodiy kayfiyatni, ayniqsa, bevosita insoniy muomala bilan bog'langan ijodiy faoliyat turlarida safarbar qilish uchun “jismoniy harakatlar” usulini qo'llash juda istiqbolli bo'lib, u haqida alohida fikr yuritish zarurdir. Bu usulning mohiyati “Muayyan hissiy holatga xos bo'lgan, kishida bu hissiyotlarning o'zi keltirib chiqarishga qodir bo'lgan jismoniy harakatlarni bajarishdan iborat bo'lib, mazkur hissiyotlarni ana shu harakatlar taqozo qiladi”. Shu narsani esga olaylik: biz hayajonimizni yengmoqchi bo'lsak, birmuncha to'xtab, nafasimizni rostdashga, sekinroq harakat qilishga intilamiz, ya'ni shunday harakat qilamizki, xuddi mutlaqo xotirjam paytimizda qanday bo'lsak, o'zimizni shunday tutamiz, natijada, hayajonlanish asta – sekin o'tib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. – T., 2020-yil 27-fevral.
2. Xayrullayev M. O'zbek pedagogik antologiyasi. T.: O'qituvchi, 1995-y
3. Ziyomuhamedov. B. Yangi pedagogik texnologiya: nazariy va amaliy. – T.: Chinoz ENK. 2002-y.
4. Djamilova N.N., Xasanboyeva O. Pedagogika fanini o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. –T.: O'zbekiston, 2008 -y.